



Dilorom IBRAXIMOVA,
O'qituvchi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: d.ibraximova@tsul.uz

MGU Toshkent filiali dotsenti B.Farmanova taqrizi asosida

THE ROLE OF JUDICIAL ETHICS IN ENSURING FAIR JUSTICE: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the role of judicial ethics in ensuring the administration of justice, as well as the theoretical and practical aspects of combating corruption in the judiciary. The author argues that the ethical principles of judges (independence, impartiality, integrity, and propriety) are not merely personal virtues, but crucial legal tools that strengthen public trust in the judiciary and prevent corruption risks. Based on a comparative analysis of international standards (the Bangalore Principles) and national legislation, the paper presents scientific and practical proposals and recommendations aimed at increasing transparency in the judicial system and improving the activities of judicial community bodies.

Key words: Administration of justice, judicial ethics, anti-corruption, Bangalore Principles, judicial independence, impartiality, integrity, legal reform.

РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ СУДЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СПРАВЕДЛИВОГО ПРАВОСУДИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ роли судейской этики в обеспечении правосудия, а также теоретических и практических аспектов борьбы с коррупцией в судебной системе. Обосновано, что этические принципы судей (независимость, объективность, честность и неподкупность) являются не просто личными качествами, а важнейшим правовым инструментом, укрепляющим доверие общества к судебной власти и предупреждающим коррупционные риски. На основе сравнительного анализа международных стандартов (Бангалорские принципы) и национального законодательства выдвинуты научно-практические предложения и рекомендации по повышению прозрачности судебной системы и совершенствованию деятельности органов судебного сообщества.

Ключевые слова: Правосудие, судейская этика, противодействие коррупции, Бангалорские принципы, независимость суда, объективность, честность, судебная реформа.

ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA SUDYALAR KASB ETIKASINING O'RNI: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada odil sudlovni ta'minlashda sudyalar kasb etikasining tutgan o'rni hamda tizimda korrupsiyaga qarshi kurashishning nazariy va amaliy masalalari kompleks tahlil qilingan. Sudyalarning axloqiy prinsiplari (mustaqillik, xolislik, halollik va begarsizlik) faqatgina shaxsiy fazilat emas, balki sud hokimiyatiga bo'lgan xalq ishonchini mustahkamlovchi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini oluvchi muhim huquqiy vosita ekanligi asoslab berilgan. Maqolada xalqaro standartlar (Bangalor prinsiplari) va milliy qonunchilik qiyosiy tahlil qilinib, sud tizimida shaffoflikni oshirish hamda sudyalar hamjamiyati organlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Odil sudlov, sudyalar etikasi, korrupsiyaga qarshi kurash, Bangalor prinsiplari, sud mustaqilligi, xolislik, halollik, sud-huquq islohoti.

Kirish. Huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning tub negizini mustaqil sud hokimiyati tashkil etadi. Sud hokimiyatining jamiyatdagi nufuzi va xalqning unga bo'lgan ishonchi nafaqat qonunlarning mukammalligiga, balki bevosita odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslar — sudyalarning kasbiy saviyasi va yuksak ma'naviy-axloqiy qiyofasiga bog'liqdir. Shu bois, bugungi kunda sud tizimini modernizatsiya qilish va unda korrupsiyaga g'ov bo'ladigan samarali mexanizmlarni joriy etish global miqyosda ham, milliy darajada ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Sudyalar kasb etikasi shunchaki xizmat intizomi yoki rasmiy qoidalar yig'indisi emas. U odil sudlovning muqaddas prinsiplari bo'lmish — mustaqillik, xolislik, halollik va begarsizlikni ta'minlovchi fundamental huquqiy vositadir. Sudya o'z faoliyatida va kundalik hayotida etika normalariga qat'iy rioya etishi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishning eng birinchi asosi hisoblanadi. Zero, sud tizimida

korrupsiyaning har qanday ko'rinishi jamiyatda adolat tushunchasining yemirilishiga va qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keladi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida korrupsiyaga yo'l qo'yish — "islohotlarga xiyonat" deb baholanishi va mamlakatda bu illatga qarshi "favqulodda holat" e'lon qilinishi sud hokimiyati zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi. Sud tizimining korrupsiyadan xoli namuna darajasiga yetishi bevosita Sudyalar oliy kengashining strategik va amaliy faoliyatiga bog'liqdir[1].

Adabiyotlar tahlili. Odil sudlovni ta'minlash va sud tizimida korrupsiyaning oldini olishda sudyalar etikasining o'rni masalasi uzoq yillardan buyon xalqaro tashkilotlar hamda dunyo huquqshunos olimlari diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi fundamental asoslar xalqaro miqyosda tan olingan "Sudyalar xulq-atvorining Bangalor prinsiplari"[2] doirasida atroflicha ishlab chiqilgan. Mazkur

hujjatda sudyaning kasbiy etikasi korrupsiyaga qarshi kurashishning “xavfsizlik kamari” ekanligi e’tirof etiladi va sudyalarning uchun oltita asosiy axloqiy tamoyil belgilanadi: mustaqillik, xolislik, halollik, yuksak axloq, tenglik va vakolatlarini munosib bajarish. Bugungi kunda dunyoning ko’plab davlatlarida sudyalarning kodekslari aynan shu prinsiplar asosida yaratilgan.

G’arb huquqiy doktrinasida sudyalarning etikasi va sud mustaqilligi o’rtasidagi mutanosiblik R.Dvorkin va L.Fuller kabi tadqiqotchilarning ishlarida keng yoritilgan. Xususan, R.Dvorkin kasbiy majburiyatlarni bajarish jarayonida yuristlardan shaxsiy manfaat va tashqi bosimlardan mustaqil ravishda harakat qilish talab etilishini ta’minlash zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, fidoyilik ularga o’z mijozlari yoki davlat manfaatlarini halol himoya qilish imkonini beradi va bu tamoyil yuristlarning axloqiy hamda professional madaniyati bilan uzviy bog’liqdir[3].

R.Dvorkin nuqtai nazaridan, sudya shunchaki qonun ijrochisi emas, balki “huquqiy yaxlitlik” tamoyilining himoyachisidir. Sudya uchun axloqiy me’yorlar — bu shunchaki cheklov emas, balki uning mustaqilligini ta’minlovchi qalqondir. L.Fuller esa “huquqning ichki axloqi” konsepsiyasini ilgari surib, sudyaning etikasi qonunlarning ravshanligi, barqarorligi va adolatli ijro etilishida namoyon bo’lishini asoslaydi. G’arb doktrinasida umumlashtirilgan yondashuvga ko’ra, sudya mustaqilligi “vakolat” bo’lsa, sudya etikasi ushbu vakolatdan “mas’uliyat bilan foydalanish” vositasidir. Bu ikki tushuncha bir-birini to’ldirmas ekan, huquq tizimida “huquqiy nigilizm” yuzaga kelishi muqarrar.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, induksiya va deduksiya hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, “Sudyalar xulq-atvorining Bangalor prinsiplari” va O’zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi, xususan,

1-jadval 2025-yil yakunlari bo’yicha intizomiy javobgarlikka tortilgan sudyalarning statistikasi

№	Ko’rilgan chora shakli / Holati	Sudyalar soni (nafar)
1	Vakolatlari muddatidan ilgari tugatilganlar (jami)	59
2	Qasamiyod va Odob kodeksini buzgani uchun lavozimidan ozod etilganlar	19
3	Jinoiy javobgarlikka tortilganlar	3
4	Lavozimi pasaytirilganlar	58
5	Navbatdagi muddatga noliyiq deb topilganlar	33
6	Umumiy intizomiy javobgarlikka tortilganlar	266

Ushbu raqamlar tizimda intizomiy nazorat kuchayganini ko’rsatsa-da, protsessdan tashqari (protsessual bo’lmagan) muloqotlarni raqamli monitoring qilish

mexanizmlari hali to’liq shakllanmaganligini ham anglatadi. Bugungi kunda sud mustaqilligi va nazorat o’rtasidagi balansni saqlashning eng maqbul usuli raqamlashtirishdir.

2-jadval Sud tizimida raqamli vositalarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi roli

Raqamli vosita turi	Korrupsiyaga qarshi amaliy ahamiyati	Kasb etikasini ta’minlashdagi roli
Ishlarni avtomatlashtirilgan taqsimlash	Inson omilini cheklaydi, ishlarni muayyan sudyaga yo’naltirish amaliyotiga chek qo’yadi.	Sudyaning xolisligi va mustaqilligini ma’muriy bosimlardan himoya qiladi.

Raqamli vosita turi	Korrupsiyaga qarshi amaliy ahamiyati	Kasb etikasini ta'minlashdagi roli
Audio-video yozuv tizimi (AVR)	Sud protsessida yopiq eshiklar ortidagi pinhona kelishuvlarga chek qo'yadi.	Sudyaning qo'pol munosabatda bo'lishi yoki etika normalarini buzishining oldini oladi.
Sud qarorlarining elektron bazasi	Barcha qarorlarni jamoatchilik uchun ochiq tahlil qilish imkonini beradi.	Bir xil toifadagi ishlar bo'yicha turlicha (shubhali) qarorlar chiqarilishini fosh etadi.

Xulosa va takliflar. Amalga oshirilgan kompleks tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasi sud tizimida sudyalarning kasb etikasini mustahkamlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Protsessual bo'lmagan muloqotlar uchun javobgarlikni qat'iy lashtirish. Sudya va ishga aloqador shaxslar o'rtasidagi sud zalidan tashqaridagi har qanday pinhona aloqalarni qat'iy taqiqlash lozim. Bunday holat aniqlanganda sudya lavozimini muddatidan oldin bekor qilish, protsessual bo'lmagan muloqotga uringan advokat yoki prokurorlarning esa litsenziyasini (vakolatini) cheklash chorasini kiritish zarur.

Sudyalarning odob-axloq komissiyalarining tarkibiy mustaqilligini oshirish. Komissiyalar tarkibiga nafaqat faoliyat

yuritayotgan sudyalarni, balki tizimda uzoq yil ishlagan faxriy sudyalarni, huquqshunos olimlarni va fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini kiritish lozim. Bu esa korporativ yopiqlik pinhona amaliyotiga chek qo'yadi.

Bangalor prinsiplari asosida uzluksiz o'qitish tizimini yo'lga qo'yish. Sudyalarning oliy maktabi dasturlariga "Sud etikasi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish" kabi maxsus amaliy kurslarni kiritish va sudyalarni har ikki yilda bir marta etika normativlari bo'yicha majburiy attestatsiyadan o'tkazish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, sudyalarning kasb etikasi sud hokimiyatini ichki ma'naviy yemirilishdan saqlaydigan eng asosiy huquqiy va psixologik qalqondir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
2. The Bangalore Principles of Judicial Conduct. United Nations, 2003. – URL: https://www.unodc.org/pdf/crime/corruption/judicial_group/Bangalore_principles.pdf
3. Dworkin R. Law's Empire // Pravovedenie. – 2013. – 195 p.
4. M. Srisha. An Analysis of Lon Fuller's Inner Morality of Law Jurisprudence // Alliance School of Law. – March 2024. – URL: https://www.researchgate.net/publication/379075502_AN_ANALYSIS_OF_LON_FULLER'S_INNER_MORALITY_OF_LAW_JURISPRUDENCE_ALLIANCE_SCHOOL_OF_LAW_SUBMITTED_BY_M_SRISHA_BBA_LL_B
5. Sudyalarning oliy kengashining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisoboti ma'lumotlari // Gazeta.uz nufuzli nashri materiallari (12.02.2026). – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/12/sudyalor/>
6. Ibraximova D.S. Huquqshunos axloqiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy zaruriyati // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – Toshkent: Scienceproblems.uz, 2025. – № S/7 (5). – B. 82-87.
7. Ibraximova D.S. Yuridik ta'limda axloqiy tarbiya // "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar" mavzusidagi respublika ilmiy, onlayn konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Innovative Academy, 2025. – B. 81-85.
8. Ibraximova D.S. Morality - legal specificity, generality feature // International Journal Of Law And Criminology. – Volume 04, issue 01. January, 2024. – pp. 42-45.
9. Ibraximova D.S. Axloq – huquq xususiylik, umumiylik jihatlari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari va zamonaviy tendensiyalari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Academic Research, 2024. – B. 321-325.
10. Xasanov Sh.E. Sudyaning odob-axloq prinsiplari va qoidalarga doir xorijiy davlatlar tajribasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari SYNAPSES: Insights Across the Disciplines ISSN: 3060-4737 Volume 2, Issue 6 IF (Impact Factor) 10.92 / 2024. – B. 231-238